

**O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida
Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga
qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish
tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

1. Mazkur nizom O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son Qarori hamda 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati, vazirlikning hududiy bo'linmalari, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda ularning hududiy bo'linmalarida (keyingi o'rinlarda – Vazirlik tizimi) korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

2. Mazkur nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Maxsus bo'linma – vazirlik markaziy apparatida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar, ma'lumotlarni ko'rib chiqish, ro'yxatga olish va tekshirish huquqiga ega Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi, vazirlik hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati vazifasi yuklatilgan yoki birlashtirilgan mas'ul xodim, vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazoratini amalga oshiruvchi tuzilmalar.

rag'batlantirish – xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, yuksak kasbiy mahorati, qonuniylik talablariga rioya etishi borasida namuna ko'rsatgani uchun qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash.

Komissiya – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 24-dekabrda 23-235-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining budjetdan tashqari jamg'armasi

mablagʻlari hisobidan xodimlarga toʻlanadigan ustamalar miqdorini belgilash toʻgʻrisidagi takliflarini koʻrib chiqish boʻyicha komissiya.

2-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari toʻgʻrisida xabar berish

3. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar toʻgʻrisida Maxsus boʻlinma orqali toʻgʻridan-toʻgʻri:

vazirlik markaziy apparati, vazirlikning hududiy boʻlinmalari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar boʻyicha Iqtisodiyot va moliya vaziri (keyingi matnlarda – Vazir) nomiga;

vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimi boʻyicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organining birinchi rahbari nomiga yozma ravishda xabarnoma, elektron pochta yoki aloqa ([*IMV antikorrupsiya bot*](#)) kanallari orqali darhol xabar beriladi. Xabarnomada quyidagilar aks ettirilishi lozim:

xodimning xizmat joyi, lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undayotgan shaxsga oid yoki uning shaxsini aniqlashga koʻmaklashuvchi maʼlumotlar va boshqalar;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning mohiyati (mansab lavozimini suiisteʼmol qilish, pora olish va boshqa jinoiy harakatlarni sodir etishga undash, hujjatlarni qalbakilashtirish va boshqalar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash usuli (muayyan xizmat yoki moddiy qimmatliklar taklif qilish, oʻziga ogʻdirishga harakat qilish va boshqa holatlar);

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan, sodir etilgan joy;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlikka undash holati tafsilotlari (telefon aloqa vositasi, suhbat jarayoni, shaxsiy muloqot, pochta joʻnatmasi orqali va boshqalar).

4. Xodimlarni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash maqsadida qilingan barcha mavjud materiallar bildirgiga ilova qilinadi va oʻrnatilgan tartibda rasmiylashtiriladi.

5. Xodim Maxsus boʻlinmaga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash haqida ogʻzaki xabar berishi mumkin. Bunda bildirgi ushbu Maxsus boʻlinma tomonidan rasmiylashtiriladi.

6. Xodimga oʻz xizmat mavqeyidan foydalangan, jismoniy va yuridik shaxslardan ularning manfaatlarini koʻzlagan holda, muayyan harakatni bajarishi yoki bajarmasligi evaziga bevosita oʻzi yoki bilvosita, pochta joʻnatmasi orqali pul, qimmatbaho buyumlar, davolanish va boshqa shu kabi takliflar bilan murojaat qilingan taqdirda, u noqonuniy xatti-harakatlarni toʻxtatishni talab qilishi va shaxsni tegishli javobgarlik toʻgʻrisida ogohlantirishi lozim.

7. Xodimning ogohlantirishiga qaramasdan, pul yoki boshqa moddiy boyliklarni qonunga xilof ravishda uning xizmat xonasida yoki boshqa joyda qoldirib ketsa, mas'ul shaxslar (qo'riqlash yoki navbatchilik qismi xodimlari) va boshqa shaxslar ishtirokida dalolatnoma tuziladi. Ushbu dalolatnoma bildirgiga ilova qilingan holda darhol rahbariyatga taqdim etiladi.

8. Xodimlar xizmatdan tashqari yoki ish joyida bo'lmagan paytlarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holati haqida har qanday aloqa vositasi orqali zudlik bilan Maxsus bo'linma xodimlariga ma'lum qiladi va Maxsus bo'linma bu haqida ushbu nizomning 4-bandida belgilangan tartibda yozma ravishda bildirgi bilan xabar beradi.

9. Tayyorlanayotgan, sodir etilishi kutilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash bo'yicha olingan ma'lumotni tekshirish va qonuniy to'xtamga kelish uchun bildirgi va unga ilova qilingan barcha hujjatlar birinchi rahbarning munosabat belgisi bilan Maxsus bo'linmaga topshiriladi.

10. Xodimlarning xizmat vazifalarini bajarish jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqidagi murojaatlarni ro'yxatga olish, hisobini yuritish maqsadida Maxsus bo'linmada jurnal (bundan buyon matnda – Jurnal) yuritiladi va belgilangan tartibda saqlanadi.

11. Jurnal qat'iy hisobot hujjati hisoblanib, ish yuritish qoidalariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

12. Jurnalda xabar bergan xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining qisqacha mazmuni va tavsifi, moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, holat yuzasidan tekshiruv o'tkazgan vakolatli xodim, qabul qilingan yakuniy qaror hamda xodimlar tomonidan yetkazilgan bildirgi ro'yxatdan o'tkaziladi.

13. Maxsus bo'linmaning bildirgini qabul qilish yoki ro'yxatga olishdan bosh tortishiga yo'l qo'yilmaydi.

14. Jurnalda xabar qilayotgan xodimning shaxsiy hayoti haqida oshkor bo'lgan ma'lumotlar, shaxsiy yoki oilaviy sirlarini aks ettirish taqiqlanadi.

15. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar bergan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor etilishi taqiqlanadi.

3-bob. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqishni tashkil etish tartibi

16. Bildirgida aks ettirilgan ma'lumotlarni tekshirish Vazirning topshirig'iga ko'ra amalga oshiriladi.

17. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni ko'rib chiqishdan asosiy maqsad: xodimning harakatiga huquqiy baho berish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undashda ishtirok etuvchi shaxslar doirasi va faktlarni aniqlash;

moddiy yoki mulkiy naf ko'rish miqdori, pora olishga undash usuli va uni o'z vaqtida aniqlash;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holati kelib chiqishining oldini olishga qaratilgan choralarni ko'rish, xodimlar tomonidan noqonuniy harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik;

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatining ijtimoiy xavfliligini aniqlash.

18. Tekshiruv jarayonida bildirgida xodimni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash to'g'risidagi belgilar mavjudligi o'rganiladi, shuningdek, mazkur huquqbuzarliklarni sodir etishga undash haqida xabar bergan xodimdan tushuntirishlar olinishi mumkin.

19. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlar tegishli tartibda Maxsus bo'linma tomonidan ko'rib chiqiladi.

20. Zaruratdan kelib chiqib, Vazirning topshirig'iga ko'ra, bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarning ko'rib chiqilishida vakolatli davlat organlari ham jalb qilinishi mumkin.

21. Bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish o'n ish kunidan kechiktirmasdan hal qilinishi lozim. Qo'shimcha tekshiruv o'tkazish zarur hollarda bildirgida bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish, Vazir tomonidan bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

22. Bildirgini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Maxsus bo'linma tomonidan tekshiruv o'tkaziladi, tekshiruv xulosasi va to'plangan hujjatlar Maxsus bo'linmada saqlanadi.

23. Bildirgida xabar natijasi bo'yicha jinoyat alomatlari aniqlangan hollarda belgilangan tartibda tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar qilinadi. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tasdiqlanib, bunday huquqbuzarlik fosh etilsa va/yoki korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 829-sonli qaroriga asosan rag'batlantiriladi.

4-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishini oldini olish va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan xodimlarni rag'batlantirish hamda ularning ta'qib qilinmasligi kafolatlari

24. Xodimlarning korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtirokini rag'batlantirishning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

Vazirlik tizimida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishda va unga qarshi kurashishda faol ishtirok etgan, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida

rahbariyatga asosli taklif va tashabbuslarni taqdim etgan, shuningdek, mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha salmoqli ilmiy hissa qo'shgan, xizmat faoliyati davomida yuksak darajada namuna ko'rsatgan va o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan, vijdonan bajargan xodimlarni rag'batlantirish;

xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishining oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish.

25. Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida murojaat etib, huquqbuzarliklar (jinoyat)ni oldini olish, to'xtatish va uni to'liq fosh etishda faol ishtirok etganligi uchun quyidagi shakllarda rag'batlantirilishi mumkin:

tashakkurnoma e'lon qilish;
esdalik sovg'a bilan rag'batlantirish;
bir martalik pul mukofoti

Bunda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Komissiya tomonidan hal etiladi.

26. Quyidagi asoslardan biri mavjud bo'lgan taqdirda xodimlar rag'batlantirilishi mumkin:

xodimlarga nisbatan qasddan sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning oldi olinishi yoki to'xtatilishi;

tayyorgarlik ko'rilayotgan korrupsiyaga oid yoki boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berishi natijasida bartaraf etish;

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni tugatish va uni to'liq fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko'maklashish;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish borasida rahbariyatga taklif va tashabbuslarining taqdim etilishi, shuningdek, ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi.

27. Xodimni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga yoki davlat mukofotlariga tavsiya qilishda uning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashdagi faol ishtiroki asosiy mezon sifatida inobatga olinadi.

28. Murojaatchining ta'qib qilinmasligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo'shatish, lavozimini pasaytirish, bosim o'tkazish, ta'qib qilish singari xarakatariga yo'l qo'ymasligi hamda ular haqida ma'lumotlar sir saqlanishi kafolatlanadi.

5-bob. Yakuniy qoida

29. Mazkur nizom talablarining buzilishida aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadilar.